



## “Omadli obuna” aksiyasini o‘tkazish tartibi

“Omadli obuna” aksiyasini “MyHit” xizmatiga aksiya o‘tkazilishi davrida obuna bo‘lgan va o‘z gudoki o‘rniga pullik musiqa o‘rnatgan abonentlar o‘rtasida o‘tkaziladi. “Omadli obuna” aksiyasi lotoreya, lotoreyani rag‘batlantiruvchi yoki boshqa rag‘batlantiruvchi tadbir yoki qimor o‘yini xavfiga asoslangan emas.

Barcha operator abonentlari aksiya o‘tkazilish davrida “MyHit” xizmatini faollashtirgan vaqtda aksiya ishtirokchisiga aylanganlari, aksiya shartlari va davri to‘g‘risida SMS yuborish orqali xabardor qilinadilar. SMS xabar o‘zbek va rus tillarida yuboriladi. Aksiya shartlari va qoidalari Operatorning Abonentlari uchun ommaviy oferta hisoblanadi.

### **Aksiyani o‘tkazish davri:**

16.08.2022 yilning soat 00:00 dan 15.09.2022 yilning soat 23:59 gacha (1 oy) davrida taqdim etiladi. Aksiyada 15.09.2022 kuni xizmatni faollashtirgan abonentlar xam ishtirok eta oladilar.

### **Aksiya ishtirokchilari:**

Aksiyada O‘zbekiston Respublikasining ushbu Aksiya ko‘zda tutilgan shartlarga muvofiq Operator bilan uyali aloqa xizmatlarini taqdim etish shartnomasi bo‘yicha oldindan to‘lov tizimidagi tarif rejalarining abonentlari bo‘lgan shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Aksiyada ishtirok etish uchun teng huquqli sharoitlar yaratish maqsadida, Operator bilan uyali aloqa xizmatlarini taqdim etish shartnomasi bo‘yicha Abonent bo‘lgan yuridik shaxslar Aksiya ishtirok eta olmaydilar. “Mobil byudjet” xizmatiga ulangan yuridik shaxslar bundan mustasno. Agar “Mobil byudjet” xizmatiga ulangan abonentlar Aksiya g‘olibiga aylanishsa, sovrinni raqam foydalanuvchisiga topshiriladi.

Operator va Kontent Provayder xodimlari va ularning qarindoshlikning birinchi navbati bo‘yicha qarindoshlari (ota-onalari, bolalari, qarindoshlari va to‘liq qarindosh bo‘lmagan aka-ukalari, opasingillari, turmush o‘rtoqlari), shuningdek agentlar va/yoki Operator va Kontent Provayder distribyutorlari kabi tijorat vakillari yoki affillangan shaxslar bilan tijorat munosabatlarida bo‘lgan shaxslar, shuningdek ushbu Aksiyani amalga oshirilishi uchun Operator va Kontent-Provayder tomonidan yollangan kompaniyalar va ularning xodimlari Aksiyada ishtirok etishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar ushbu abonentlardan biror biri Aksiyada ishtirok etgan va g‘olib bo‘lib chiqsa, u holda tegishli sovrin hech bir holatda unga berilmaydi, balki talablarga javob beradigan va randomayzer orqali g‘olib bo‘lgan keyingi ishtirokchiga o‘tadi.

### **Aksiyada ishtirok etish tartibi:**

UZTELECOM mobil aloqasining GSM standarti abonentlari aksiya o‘tkazish davrida “MyHit” xizmatga obunani amalga oshirib, istalgan pullik musiqani faollashtirgan abonentlar aksiya ishtirokchisiga aylanadilar.

### **Aksiya g‘oliblarini aniqlash va sovrinlarni topshirish:**

Aksiya o‘tkazish davrida “MyHit” xizmatidan pullik musiqani faollashtirgan abonentlar ro‘yxati “MyHit” xizmatni taqdim etuvchi “Smile Mobile” MChJ, “O‘zMobayl” filialining mas‘ul xodimlariga taqdim etadi. Ro‘yxatda aksiya o‘tkazish davrida “MyHit” xizmatidan pullik musiqani faollashtirgan abonentlar raqamlari ko‘rsatilgan bo‘ladi. G‘oliblarni 2022 yilning 20 sentyabr kuni UZTELECOM ning rasmiy Instagram sahifasi “uztelecomuz”da jonli efir orqali shakllantirilgan ro‘yxatdan randomayzer orqali aniqlanadi.

G‘oliblar UZTELECOM ning rasmiy Instagram sahifasi “uztelecomuz” orqali jonli efirda aniqlanganda, aksiyani o‘tkazuvchi mas‘ul xodim abonentga 1099 qisqa raqamidan qo‘ng‘iroqni amalga oshiradi. Abonentga qo‘ng‘iroq amalga oshirilganda abonentning gudok o‘rniga o‘rnatilgan musiqa yangrashi lozim. Agar musiqa yangramasa u holda abonent g‘olib xisoblanmaydi. Yutuqni boshqa “Omadli obuna” aksiya ishtirokchisiga, ro‘yxatdan “random” (random.org) shaklida aniqlab beriladi. G‘olib aniqlansa va u Aksiya barcha shartlarini bajargan bo‘lsa-yu, ammo abonent qo‘ng‘iroqqa javob bermasa, abonentga uch ish kuni davomida kuniga uch marotabadan qo‘ng‘iroq qilinadi. G‘olib bilan uch ish kuni ichida aloqa o‘rnatishning imkoni bo‘lmasa, bu holda sovrin boshqa “Omadli obuna” aksiya ishtirokchisiga, ro‘yxatdan randomayzer (random.org) orqali aniqlab, aniqlangan abonentga taqdim etiladi. Shu jarayon g‘olib aniqlanguncha va g‘olibga mukofot topshirilguncha davom etadi. G‘olib, sovrinni olishdan bosh tortsa sovrin “O‘zMobayl” filialida qoladi. Aksiya g‘oliblari g‘olibni e‘lon qilish bilan bog‘liq bo‘lgan huquq va majburiyatlarni to‘liq yoki qisman uchinchi shaxslarga, shu jumladan ularning qarindoshlariga topshirishga haqli emas.

### **Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish:**

Operator va Kontent-Provayder Sizning shaxsiy ma’lumotlaringiz ushbu Aksiyada Sizning ishtirokingizni boshqarish va agar Siz g‘olib bo‘lib chiqqan holatda Sizning ma’lumotingizni e‘lon qilish maqsadida ishlov berilishi to‘g‘risida Sizni xabardor qilishadi. Bundan tashqari, sizning ma’lumotlaringiz ushbu Aksiya doirasida marketing va savdo xizmati uchun qayta ishlanadi.

### **Sovrinlar:**

- Birinchi g‘olibga - 4-toifali chiroyli raqam.
- Ikkinchi g‘olibga - 4-toifali chiroyli raqam.
- Uchinchi g‘olibga - 4-toifali chiroyli raqam.
- To‘rtinchi g‘olibga- CPE router.
- Beshinchi g‘olibga- CPE router..
- Oltinchi g‘olibga- CPE router.

### **Sovrinlarni topshirish:**

Sovrinlarni g'olib bo'lgan abonentning hududiga qarab o'z hududidagi bosh sotuv va xizmat ko'rsatish ofisida topshiriladi. Sovrinlar, g'olib aniqlangan kundan o'n ish kuni ichida topshiriladi. Sovrinni olish jarayonida, G'olib, raqami va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi kerak. Chiroyli raqam yutib olgan abonentlar ushbu raqamni o'z nomlariga faollashtirishlari mumkin. Boshqa fuqaroning nomiga faollashtirish taqiqlanadi.

**Aksiya g'oliblarining majburiy roziligi:**

G'oliblar "MyHit" xizmati bilan bog'liq har qanday ijtimoiy-reklama faoliyatida o'z ismi, familiyasi va boshqa axborot, shuningdek o'z fotosuratidan nusxa ko'chirish va foydalanishga ruxsat berishadi.